



CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA UCHLIK TIMSOLI

S.Xodjayev

FarDU dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD)

F.Umaraliyeva

FarDU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *maqolada yozuvchi Chingiz Aytmatov roman va qissalarida uchlik timsolining talqinlari va ularning badiiy-estetik va falsafiy vazifalari tahlil qilingan.*

Kalit so'z va ibora: *qirg'iz adabiyoti, uchlik timsoli, uchlik tamoyili, uch avlod, noan'anaviy sevgi uchligi, ajdodlar kulti, badiiy-estetik vazifa, shakl va mazmun birligi.*

Аннотация: *в статье на примере романа и повестей Чингиза Айтматова анализируется своеобразие интерпретации символа триады и его художественно-эстетические, философские функции.*

Ключевые слова и выражения: *кыргызская литература, классическая литература, символ триады, принцип триады, нетрадиционный любовный треугольник, культ поколений, художественно-эстетическая, философская функции.*

Abstract: *in the article, using the example of the novel and stories of Chingiz Aitmatov, the originality of the interpretation of the triad symbol and its artistic, aesthetic, and philosophical functions are analyzed.*

Keywords and phrases: *kyrgyz literature, classical literature, symbol of the triad, principle of the triad, unconventional love triangle, cult of generations, artistic, aesthetic, philosophical functions.*

XX asr turkiy va jahon adabiyotining ulkan vakillaridan biri, qirg'iz adabi Ch.Aytmatovning ijodi jahon adabiyotining eng yaxshi an'analari bilan qirg'iz milliy adabiyoti an'alarining uyg'unlashuvidan iborat bo'ldi. YUNESKOning ma'lumotiga ko'ra, u yaratgan asarlar jahonxalqlarining 165 tiliga tarjima qilingan va 70 milliondan ortiq nusxadan chop etilgan.

Ikki tilda, ya'ni rus va qirg'iz tillarida ijod qilgan yozuvchi Ch.Aytmatovning ijodi kichik-kichik hikoyalar yozish bilan boshlangan. Yozuvchiga shuhrat keltirgan asari, uning "Jamila" nomli qissasi bo'ldi. Uni mashhur yozuvchi Lui Aragon fransuz tiliga tarjima qilib, tarjimaga o'zi so'zboshi yozgan va asarni "Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa" deb baholagan. Bu asar ikki yil ichida 30 dan ortiq chet tillariga tarjima qilindi. Bu jahon adabiyoti tarixida kamdan kam yozuvchilar ijodi bilan sodir bo'ladigan hodisa edi. Asar voqealari ikkinchi jahon urushi davrida bo'lib o'tadi. Urushdan yarador bo'lib qaytib kelgan Doniyor bilan kelinchak Jamila o'rtasidagi otashin muhabbat katta mahorat bilan berilgan. Shu o'rinda yozuvchi noan'anaviy sevgi uchligi – ma'shuqa-oshiq-raqib o'rtasidagi munosabatlarga murojaat qiladi. Uchlikning noan'anaviyligi shundaki, bu yerda "raqib"



vazifasini Jamila bilan to'ylari bo'lgach, tez orada frontga yuborilgan eri Sodiq bajaradi. Ayol turmush o'rtog'i uni sevmasligi yaxshi bilgani uchun ham, (U Doniyorga sekin shivirladi:

– Chindan ham gumonsiradingmi, nahotki, men seni unga almashtirsam! U meni hech qachon sevgan emas, sevmaydi ham!) uni jon-dilidan sevgan Doniyor bilan Gurkurov ovulidan ketishga qaror qiladi. To'g'ri, ayni damda jangda yaralanib, Saratovdagi gospitalda davolanayotgan eri bo'laturib, Doniyorga muhabbati tufayli Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinadi. “Biroq o'z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo'ladi”.

Qissadagi yana bir noan'anaviy, o'ziga xos sevgi uchligi – Doniyor-Jamila-Seit uchligi bo'lib, Seit bunda raqib vazifasini bajarmaydi, chunki bu uning ilk, bolalikdagi “sevgisi” edi. Bola Doniyor va Jamila o'rtasida paydo bo'lgan yuksak tuyg'ularni anglab yetmasa ham qalban his qildi, ularga xayrixohlik bildirdi, Jamilaning qarorini ovuldagilardan yolg'iz o'zi qoralamadi, Doniyorning kuylari esa uni hayajonlantirib, hayotning butun go'zalligini sezishga ilhomlantirdi.

Qissada otashin muhabbatga erishish uchun, kuchli iroda ham kerak ekanligi juda ta'sirli qilib berilgan. Ishq yo'lida har qanday bo'htonchilarning mayda gaplari bir pulga arzimasligi Jamila va Doniyorlar muhabbati vositasida ko'rsatib berilgan.

CH.Aytmatovning “Momo Yer”(“Somon yo'li”) qissasida To'lg'onoy ismli ayolning boshiga tushgan dahshatli voqealarni tasvirlaydi. Insonning boshi toshdan qattiq ekanligini, u har qanday musibatlarga chidashi uchun katta irodaga ega bo'lish kerakligi tasvirlangan. Urush tufayli eri va uch o'g'lidan ayrilgan To'lg'onoy birdan-bir suyanchig'i, farzandi o'rniga farzand bo'lib qolgan kelinidan ham ayriladi. Falak yana nimalarga qodirsan, deb nola qiladi. Lekin ko'ngli cho'kmaydi, yana hayot sari intiladi. To'lg'onoy Ona yerga savol berganda, yer ham tirik insonday javob beradi. Ana shu savol-javob orqali juda katta falsafiy muammolar haqida fikr yuritiladi. Asar oxirida To'lg'onoy uchta narsaga: quyoshga, bulutlarga, yerga murojaat qilib, ulardan o'z dardini boshqalarga ham yetkazinglar, deb iltijo qilganida, ular: “Yo'q, To'lg'onoy, sen aytgin, sen – insonsan, sen hammamizdan buyuk, sen hammamizdan ulug' bo'lib yaratilgan jonsan, sen aytgin, sen insonsan”, deb javob beradi. Bu bilan yozuvchi insonning yengilmas ruhiga, kurashchan hayotiga ishora qiladi. Bu so'zlar Amerika yozuvchisi E.Xemingueyning “Chol va dengiz” asaridagi “Insonni yengib bo'lmaydi” degan fikrlariga hamohangdir.

Yozuvchining “Oq kema” (“Ertakdan so'ng”) qissasida uchlik tamoyili yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Qissadagi yosh bola, Mo'min chol obrazlari juda muvaffaqiyatli chiqqan. Qissa ham ana shu bobo va nabiraning qismatiga bag'ishlangan. Asar uchlik timsoli asosiga qurilgan bo'lib, unda syujet real hayotiy voqelik va ikkita ertak atrofida rivojlanadi. Biri bolaning o'zi to'qigan “Oq kema” haqida ertak bo'lsa, ikkinchisi bobosi Mo'min chol aytib bergan “Shoxdor ona bug'u” haqidagi ertakdir. San-Tosh darasidagi o'rmon qarovullari hayoti bir qarashda katta dunyodan ajralib qolgan kishilarning turmushi tasvirlangandek tuyuladi. Lekin masalaga chuqurroq e'tibor berilsa, ana shu uzoq tog'dagi uch oila qismati hozirgi dunyo qismati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrdagi yutuqlaru, fojialar shu insonlar obrazi orqali mahorat bilan berilgan. Uch hovlida yolg'iz bitta bola bo'lib, uning ichki dunyosi, o'y-fikrlari yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan



tasvirlangan. U “Oq kema”da hamma narsa bor, uni tashlab ketgan otasi ham, onasi ham o’sha yerda yashaydi, deb o’ylaydi. Bolaning ota-onasi bor bo’lsa ham, er-xotin ajralib, alohida oila qurishgani uchun u bobosining qaramog’ida qolgan. Shu o’rinda e’tiborni ota-ona-bola oila uchligiga qaratamiz. Oilaning parokanda bo’lishidan avvalo bola aziyat chekadi. Ota-onasiz yashayotgan bolaning hech kimga keragi yo’q, hattoki yaqinlariga o’gay edi, u bilan biror falokat yuz bersa, bobosidan tashqari hech kim uni qidirib jon koyitmas, dardida kuyib, ado bo’lmas edi. Bu yetti yoshga to’lgan bolaning o’z taqdiri haqidagi o’ylari edi. Bobosi Mo’min chol esa afanditabiat kishi bo’lib, uni Mo’min chaqqon deyishardi. U qayerga bormasin barchaga yordam berar, har doim xizmatda bo’lardi, shu ma’noda, o’zi sezmaganda holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi. Qissadagi O’razqul obrazi ham o’ziga xos. Farzand dog’ida kuyib o’rtangan O’razqul atrofidagi uchta yaqinlariga zug’um qiladi: xotinini uradi, bolani yomon ko’radi, Mo’min cholga azob beradi.

Qorovulxonada ayollardan bor-yo’g’i uch kishi: buvisi, O’razqulning xotini Bekey(bolaning xolasi) va yordamchi ishchi Seydahmadning xotini Guljamol bor edi.

Yozuvchining yuksak mahorat bilan yozilgan qissalaridan yana biri “Sohil bo’ylab chopayotgan olapar” qissasida esa qayiqdagi hayot tasvirlanadi. Ushbu asar voqealari juda jonli tasvirlangani, unda uch avlod vakillarining ishtirok etishi o’quvchining e’tiborini o’ziga ohanrabodek tortadi. Avlodlar uchligining(bobo – ota - o’g’il) kenja vakili bo’lgan Kirisk birin-ketin uchta eng yaqin insonlari:O’rxon bobosi, otasi Erayin va amakisi Milxundan ajraladi. Lekin eng og’iri jajji Kiriskga bo’lgan, chunki u bularni ko’rib-bilib turadi, qalbidan o’tkazadi, his qiladi, ammo qo’lidan hech narsa kelmasdi va uning uchun ushbu chorasizlik eng qiyini va og’iri edi. Qissada katarsis holati yuqori darajada yoritib berilgan bo’lib, uni o’qigan kitobxon asar ta’siriga tushib qahramonlarning iztiroblarini qalban his etadi.

“Sohil bo’ylab chopayotgan olapar” umidning yorqin namunasi sanaladi. Masalan, Kirisk tashnalikdan “ko’k sichqoncha” ni tinmay chaqiradi, garchi mo’jiza yuz bermasa ham, bola “Ko’k sichqon, suvingdan ber! Ko’k sichqoncha, suvingdan ber!” deya takrorlayveradi. Bu esa bolaning umidi, ishonchi, yagona chorasi bo’lib qoladi, aynan shu umid bolani tirik qolishiga yordam beradi. Demak, katta avlod vakillari kelajakka umid bilan boqadilar. Ular bolani(kelajakni) saqlab qolish uchun o’zlarini qurbon qiladilar, so’nggi tomchi suvni ichmaslik uchun o’zlarini dengizga tashlaydilar. Bola so’nggi tomchi suv bilan tirik qoladi va manziliga yetib oladi. Qissa timsollarga asoslangan achchiq hayot haqiqatini ochib beradi. Yozuvchining fikricha, haqiqiy inson o’zi yashab turgan zamin, sayyora, olamni keyingi avlodlarga qolishi uchun uni asrashi kerak. Asar kelajakka ishonch, ajdodlar va avlodlar munosabati, sabr-bardosh va albatta, tarbiya masalalarini yoritib bergan.

CH.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani XX asrning 80-yillarida yozildi. Bu davrda ijtimoiy hayotimizda turg’unlik davri hukm surmoqda edi. Adib shu tuzumga o’z e’tirozlarini mazkur romanida ifoda etgan. Roman ko’p planli asar bo’lib, bir nechta syujet yo’nalishlariga ega. Bu syujet liniyalaridan asosan uchtasi asarning g’oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asar qahramonlari oddiy mehnatkash kishilarning vakillari bo’lib, poyezd yo’lidagi bir bekatning xizmatchilaridir. Poyezdlar G’arbdan Sharqqa, Sharqdan G’arbgaga o’tib turadigan “Bo’ronli” degan bekatdagi to’rt-besh xizmatchilarning qismati orqali adib,



juda katta hayotiy muammolarni ko'tarib chiqadi. Keksa xizmatchi Qozongapni dafn qilish marosimi bilan bog'liq voqealar tasviri asarning asosiy syujet liniyasidir. Marhumning do'sti Edigei Qozongapni ajdodlar qabristoni bo'lgan "Ona Bayit"ga dafn etish uchun xarakat qiladi. Lekin bu qabriston kosmodrom chegarasida bo'lib tikonli simlar bilan o'rab olingan edi. Oxiri Qozongapni boshqa joyga dafn qilishga majbur bo'ladi. Edegei deyarli bir asrlik tarixini eslaganda, uning ko'nglida yashirinib yotgan haqiqiy odamiylik, oliyjanoblik butun ulug'vorligi bilan namoyon bo'ladi. Shu voqealar davomida ona xalqi tarixidan, uning yaxshi an'analaridan ayrilish chin insoniylikni yo'qotish bilan barobar ekanligi yaqqol ochiladi. Adib manqurt haqidagi rivoyat tasviri orqali xalq tarixidan, urf- odatlaridan uzilishning dahshatini butun fojeasi bilan ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi.

Asarda insoniyatning kelajagi ham fantastik syujet yo'nalishida beriladi. Demak, yozuvchi asarda insoniyatning uch davri: o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi haqidagi o'y-fikrlarini bayon qiladi.

CH. Aytmatov ijodida uchlik timsoli ramziy, majoziy ma'no tashish funksiyasinibajaradi. Yozuvchi badiiy asar yaratishda uchlik timsolini obrazlarning badiiy-estetik vazifasi va o'zaro munosabatini inobatga olgan holda qo'llagan, uning asarlari misolida uchlik timsolining badiiy asar shakl va mazmun birligini ta'minlovchi muhim unsur ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. CH.Aytmatov, "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar". G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at". T., 1984.
2. CH.Aytmatov. Tanlangan asarlar: Birinchi jild: Qissalar – T., "Sharq", 2009. – 496 b.
3. CH.Aytmatov. Qiyomat: roman. "Yangi asr avlodi", 2018. – 432 b.
4. CH.Aytmatov. Oxir zamon nishonalari. Toshkent, «Sharq», 2001.
5. Xo'jayev, S., & Tuychiboyeva, N. K. Q. (2022). BOBO VA NABIRA MASALASI.(CH. AYTMATOVNING "OQ KEMA" ASARI MISOLIDA). International scientific journal of Biruni, 1(2), 376-381.
6. Xo'jayev, S., & Abdumalikova, D. R. Q. (2022). BADIY ADABIYOTDA OPA-SINGILLAR OBRAZI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 734-740.
7. Xo'jayev, S., & qizi Tuychiboyeva, N. K. (2022). BOLA RUHIYATI TASVIRI (CH.AYTMATOV VA O'.HOSHIMOV ASARLARI MISOLIDA). RESEARCH AND EDUCATION, 1(3), 125-129.
8. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.
9. Sabirdinov, A. G. (2021). Interpretation of Characters in Utkir Hoshimov's Story "Yanga". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(6), 196-200.



10. Sabirdinov, A. (2020, December). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. In Конференции.
11. Sabirdinov, A., & Muladjanov, F. (2023). HAYRIDDIRIN SALOHNING POETIK OLAMI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(24), 309-312.
12. Oripova, Gulnoza, & Alijanova, Maftuna Azimjon Qizi (2022). ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANIDA AYOL PORTRETINING BADIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 221-226.
13. Oripova, Gulnoza Murodilovna, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2022). O'ZBEK NASRIDA URUSH MAVZUSI VA "YO'QOTILGAN AVLOD" MUAMMOSI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 213-220.
14. Oripova, G. , & Mirzajonova, G. (2023). TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA MUALLIF MUNOSABATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (10), 411-415.
15. Oripova, Gulnoza, & Abdurasulova, Nafisa Abdumannob Qizi (2023). NABI JALOLIDDIN NASRIDA URUSH QATNASHCHILARI RUHIYATI TASVIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 495-501.